

Djalilova Gulbahor Mamirovna

*Andijon Davlat tibbiyot instituti akademik litseyi tarix fani o’qituvchisi*

**Anotatsiya:** O’zbek xalqining eng qadim zamonlardan to xozirgacha etnik tarkibi va etnogenezi. O’zbek xalqi etnografiyasini o’rganish. An’anaviy mashg’ulotlari va xo’jalik faoliyati.

**Kalit so`zlar:** Sug’orma va lalmi dehqonchilik. Suv xo’jaligi. an’anaviy agrotehnika, chorvachilik, Xunarmandchilik. Transport vositalari va savdo. Moddiy madaniyat. Ijtimoiy munosabatlar. Xalq bayramlari va o’yinlar. Oilaviy-maishiy turmush marosimlari va an’analari. Diniy tasavvurlar va xalq e’tiqodlari. Ilm-fan. Folklor va adabiyot. Xalq amaliy san’ati. O’zbekistonda xozirgi etnik madaniy jarayonlar.

**Abstract:** *Ethnic composition and ethnogenesis of the Uzbek people from the earliest times to the present. Studying the ethnography of the Uzbek people. Traditional training and economic activities.*

**Key words:** Irrigated and dry farming. Water management. traditional agrotechnics, animal husbandry, handicrafts. Vehicles and trade. Material culture. Social relations. National holidays and games. Family rituals and traditions. Religious ideas and folk beliefs. Science. Folklore and literature. Folk art. Current ethnic cultural processes in Uzbekistan.

O’zbek xalqi o’zining ko’p asrlik moziy tarixiga ega. Xalqimiz juda katta davr ichida bir qancha ijtimoiy iqtisodiy bosqichlarni o’tib murakkab jarayonlar davomida elat va sungra millat bo’lib shakllangan. Ana shu shakllanish jarayonlarini o’rganish etnografiya fanining xozirgi davrdagi eng dolzarb vazifalaridan biridir.

Sirdaryo bilan Amudaryo oralig’idagi Markaziy Osiyoning aholisi jihatidan eng yirik davlati O’zbekiston Respublikasi yastanib yotadi. Bu hududda juda qadimiyy madaniyatga ega bo’lgan xalq – o’zbeklar yashashadi. Respublika tarkibiga bir Antonom respublika, 12 viloyat kiradi. Viloyatlar ichida maydoni jihatidan eng yiriklari Buxoro, Samarqand. Qashqadaryo va Surxondaryo. Respublika tarkibiga 162 tuman, 118 shahar bo’lib. MDX mamlakatlari ichida Rossiya va Ukrainiandan keyin uchinchi o’rinda turadi. Aholining 60 foizdan ziyodi qishloqlarda yashaydi. O’zbekistonda 24 milliondan ortiq aholi yashaydi va shundan 14 millioni o’zbeklar.

Respublikada o’zbeklarni barcha viloyat va tumanlar qishloqlarda uchratish mumkin. Surxondaryo va Xorazm viloyatlari aholisining deyarli hammasi o’zbek. Boshqa joylarda o’zbeklar turli millat vakillari bilan birga yashaydi, Lekin hamma yerda ular ko’pchilikni tashkil etadi.

Qoraqalpog’istonda o’zbeklar janubiy tumanlar – Turtkul, Beruniy, Amudaryo atroflarida yashaydi. Qirg’izistonda o’zbeklar Ush viloyatida. Tojikistonda Xisor vodiysida, shuningdek respublikaning janubiy xududlarida, Qozog’istonning janubida hamda Jambul,

Shimkent viloyatlarida yashaydi. O'zbeklarning bir milliondan ziyodi Afg'onistonda hamda Xitoyning Sinzyan-Uyg'ur Avtonom viloyatidagi Maymana qishloqlarida umrguzaronlik qilishadi. Shuningdek, o'zbeklarni Turkiya, Saudiya Arabiston, AQSH Olmoniya kabi xorijiy davlatlarda ham uchratish mumkin.

Markaziy Osiyoning xususan ikki daryo - Jayxun va Sayxun oralig'ida miloddan avvalgi II-I asrlar milodning V asrlarida yashagan odamlarning xayoti va madaniyati xaqida qimmatli ma'lumotlar arxeologlar tomonidan to'plandi. Antropoglarning bu xudadda olib borgan tadqiqotlari xozirgi o'zbek va voha tojiklariga xos antropologik tip miloddan avvalgi birinchi ming yillikning oxirlari va milodning boshlarida Sayxunning o'rta va qo'yи oqimlari zonasida shakllanib keyinchalik milodning II-III asrlarida Farg'ona bilan Xorazm voxalariga Zarafshon vodiysiga ko'chib o'tganliklarini xula tasdiladi. Bu tipni antropologlar O'zbek xalqi va voxa tojiklariga xos «ikki daryo oralig'i tipi» deb atagan edi.

Qadimgi Eron, Xindiston, Yunon, Rim va Xitoy mualliflarining guvoxlik berishicha, o'zbeklarning kelib chiqishi tarixda saklar, massagetlar, toxarlar nomlari bilan mashxur bo'lgan va qadimgi zamonalarda O'rta Osiyo hamda chegaradosh xududlarda ko'chib yurgan xalqlarga, Sug'd, Xorazm, Parkana va Shoshning qadimiy xalqlari bilan uzviy bog'likdir.

O'zbeklar va tojiklarning xalq bo'lib shakllanishida miloddan avvalgi ming yillikning oxiri va milodning birinchi asri arafasida jayxun va Sayxun oralig'iga shimoldan ko'chib kelgan turkiyzabon xalqlari Jayxunning janub tarafidan ko'chib o'tgan va fors tilida so'zlashuvchi o'abilalari shuningdek IV-V asrlar da bu yerga shimol tomondan ko'chib kelgan xionit, kidorit. Eftalit deb ataluvchi xalqlar va nixoyat, VI-VII asrlar da O'rta Osiyoda shuningdek xozirgi Afg'onistonning shimoliy qismida o'z hukmronligini o'rnatgan G'arbiy turk xoqonligi xalqi - turklarning roli katta bo'ldi.

Davrlar o'tishi bilan o'zbeklarning etnik tarkibi boyib, takomillasha boshladi. X asr oxiri XI asr boshlarida Qoraxoniylar bilan birga Oltoy, Yettisuv va Sharqiy Turkistondan Movoraunnaxrga ko'chib kelgan bir qancha qabilalar, turgashlar, tuxsilar, qarluqlar, chigillar. Ug'uzlar, arg'inlar. va boshqa turkiy zaboni qabilalar o'lkaning Sharqiy Eron va turk tilarida so'zlashuvchi aholisi tarkibini etnik jihatdan boyitdi.

X-XI asrlar da o'zbek xalqi to'la shakllandi, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jihatdan rivojlandi. Eski o'zbek tiliga asos bo'lgan qarluq - chigil lahjasini rivoj topdi va yozma adabiyot darajasiga ko'tarildi. Bu lahxja o'zbek xalqining umumiyligi bo'lib qoldi.

XIII asr boshlarida Movarounnaxrga Chingizzon qattiq xujum bilan bostirib kiradi. Bu qushin tarkibida mug'ullar bilan birga turklar va turklashgan mug'ullar ham ko'p edi. Qarluqlar, jaloyirlar, tatarlar, marqitlar, kurlovitlar, burkutlar, qung'irotlar, barloslar, sulduzlar, boyovutlar, baxrinlar o'zbek xalqini etnik jihatdan yanada boyitdi. Ammo XV asrgacha bular o'zbek nomini olmasdan o'zlarini turk yoki o'z qabilasi nomi bilan atalib kelgan edi.

XIV asr 80-90 yillaridan boshlab Sirdaryo bilan Amudaryo oralig'i yerlarga Dashti qipchoqdan ko'chmarchi turk-mug'ul qabilalari bostirib kirgan. XVI asr boshida

Muhammad Shayboniyxon boshchiligidan boshlarni Movarounnaxrning turkiy zabon xalqlari o'zbek nomini oldi. Istilo qilingan joylarda ko'chmanchi o'zbeklar ozchilikni tashkil qilsa ham zur siyosiy va harbiy ko'chga ega bo'lishgan, ular asta-sekin o'troq dehqonchilikka o'tishgan.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida o'zbeklar uchta katta etnografik guruuhdan iborat bo'lgan vohalarda joylashgan qadimgi o'troq aholi. Ikki daryo oralig'ida yashagan qabilalar bilan kelgindi turk-mug'ul hamda keyingi o'g'izlar bilan aralashib ketgan yarim ko'chmanchi turmush tarzi va urug'-qabilaviy nomlarini saqlagan avlodlar: Dashti Qipchoqdan kelgan qabilalarning o'troqlasha boshlagan elatlarning avloddari.

Turkiston Rossiya tomonidan bosib olingach o'zbek xalqi milliy birligi bir oz tezlashdi, o'zbek millati shakllana boshlandi. Ammo O'rta Osiyoni Turkiston general-gubernatorligi, Xeva xonligi va Buxoro amirligiga bo'linganligi o'zbeklarni etnik jihatdan to'la shakllanishiga ancha g'ov bo'ldi.

Oktabr to'ntarishi arafasida o'zbeklar patriarxal-urug'chilik sharoitida yashagan. Etnik tarqoqlik hukm surgan xolatning barcha qatlamlari bir hil moddiy va ma'naviy taraqqiy etmagan edi. Shuningdek bu o'zbek qavmlarining bir-birlariga yaqinlashuvi va uyg'unlashuvi jarayonlarini asta-sekin unutishib o'zlarini o'zbek deb atashadi va o'zbek millatining mushtarak tarkibiga kirdi.

**Moddiy madaniyati.** O'zbek zamini Markaziy Osiyoning eng qadimiylarini osori-atiqalariga boy, moddiy-madaniy turmush tarzi kishilik jamiyatining eng kuhna davralariga borib taqaladigan o'lkadir. Dehqonchilik, chorvachilik, deyarli xo'jalikning barcha soxalari necha asrlardan buyon rivojlanib kelmoqda. O'zbeklarning ajdodlari asli dehqon, asli chovador, Xunarmand xalq xisoblanadi.

**Xunarmandchiligi.** O'zbek elating urug'-aymoqlari juda qadimdan kosib-Xunarmand bulgan. «Yigit kishiga qirq xunar ham oz» degan ajoyib maqolga amal qilib, o'zbek yigit-qizlari bolalik o'smirlik davrlaridanoq biron Xunarni egallahsga xarakat qilishgan. Deyarli har bir qishloq shaxardagi 5-10 mahallaning birida uz novvoyi, tegirmونchisi, qassobi, duradgori, sartoroshi, takachisi, temirchisi, yamoqchisi, ip yigiruvchisi, tukuvchisi, kunchisi, tikuvchisi mavjud edi, Olis qishloqlarda bir yo'la bir necha Xunarga qo'l o'radigan Xunarmandlari bo'lgan.

Qo'li gul ustalar ishlagan qadimiylarini metall buyumlarnish xilma-xili respublikamizning ko'pgina muzeyslarida namoyish qilinayotganligi beziz emas. Qo'yma qozonlar, shamdon chiroqdon, manqaldon, usmadon, qulf, zanjir. turli badish buyumlarni hamma qiziqib tomosha qilmoqda. Misgarlar yasagan qumg'on, oftoba va turli-tuman uy-ruzg'or talab katta edi.

**Transporti.** O'zbekiston qadimiylarini karvon yo'llariga boy o'lka hisoblanadi. Buyuk Ipak yo'li buto'n dunyoga mashxur bo'lgan, Bu yo'ldan ot-tuya karvonlari ketma-ket o'tib turgan. Karvon yo'llari kuxna Xorazmdan shimolda Kazalinsk, Perovsk, Irgiz shaxarlari tomon g'arbdan Astraxan, Kaspiy dengizi qirg'oqlari sari, sharqda Jizzax, Toshkentga, janubda esa Ashgabat, Mari, Buxoroga olib borgan.

Ko'pincha tuya korvonlari bilan yo'l yo'rgan. Odatda har bir karvonda 20-30 ta, ba'zan esa xatto 60-70 ta tuya bo'lgan. Karvонboshiga nor tuya qо'yilgan. Boy savdogar yoki karovn egalari bu tuyaga yuk ortmasdan uni chirolyi yasatishgan. Egari chetlariga popukli qizil jihozpush solinib, buyniga charm tas-ma bilan katta dum-dum kungirok, pastrogiga undan kichik-rok tuqur qung'iroq, oldingi ikki oyog'ining ostiga beshtadan dumal oq shiqildoq qung'iroqchalar osilgan. Bu qung'iroqchalar tizgir deyilgan.

Yuk tashishni tuyadan boshqa ot, eshak ham ishlatilgan. Otga odatda 120 kg gacha, eshakka 300 kg gacha yuk ortilgan. Chulonlar, dehqonlar, karovchilar ko'pincha eshak minishgan. Daryo, ko'l, dengizlarni suzib yo'rishi uchun qayiq, kema ishlatilgan. Qamish bog'lamlaridan yasalgan soldan ham foydalanishgan.

**Uy-joylari.** Asrlar mobaynida o'troq xayot kechirishi natijasida o'zbeklarning turli urug'-qabilalari orasida o'ziga xos milliy an'analarga mos uy-joy qo'rish tartibi qaror topgan. Shuning uchun ham elimizning turli joylarida bir-biridan farq qiladigan o'z uy-joy uslubi xali-xanuzgacha hukm surib kelmoqda. Bu erda Farg'ona, Buxoro, Xeva va Shaxrisabz uslublarini aloxida ko'rsatib o'tmoq kerak. Har biri shu vodiy yoki xavza tabiiy shart-sharoitlariga qarab tashkil topgan. Tez-tez yer qimirlab zilzila bo'lib turadigan Farg'ona vodiysida qo'sh sinch, xevada esa yakka sinch uy qurilgan.

O'zbeklarning turar-joylari boshqalarnikidan ko'p jihatdan bir-biridan deyarli farq qilmaydi. Hammasi baland paxsa, guvala yoki g'ishtin devorlar ko'chaga emas balki xovli tomonga o'rnatilgan. Hovli ichkari va tashqariga bo'lingan. Oila a'zolari kunlarini asosan ana shu ichkarida o'tkazishgan. Mehmon kelganda tashqari hovlidagi mehmonxonaga olib qolining. Kosib-Xunarmandalarning uy-joylarida tashqi xovlida ustaxonasi bo'lgan.

**Kiyim-kechaklari.** O'zbeklarning usti-boshi asrlar davomida ko'p marta o'zgarib yangilanib va takomillashib kelmoqda. Har bir davr, zamonning o'ziga xos milliy, an'anaviy kiyim-kechagi bor. Ko'p kiyimlarining bichilishi tikilish. Kiyim uchun ishlatiladigan materiali deyarli tubdan o'zgargan bo'lsa ham, lekin shakli va mazmunida o'zgarish deyarli yo'q. Erkaklar kiyadigan ust-boshda ham, ayollar kiyadigan kiyim-kechakda ham o'sha elementlar saqlanib qolgan. Erkaklarda albatta ko'ylak, ishton, chopon, to'n, bosh kiyim, oyoqlarida esa poyabzal, ayollarda ham shu kiyimlarni ko'ramiz.

O'tmishda ko'ylak erkak uchun ham, ayol uchun ham bir xilda bichilgan. Kerakli mato, gazlamani taxminan zarur ulcham-larda, bir necha bulakka ajratib. Ana shu bulaklaridan ko'ylak tikilgan. Erkaklar ko'ylagini tikayotganda pishiq bo'lishi uchun mato ichidan elka qo'yilgan. Elka qariyib 10 sm enda olingan. Ko'ylakning engi turli joyda turlicha tikilgan. Masalan, Samarqandda qo'l uchi tomoni kichraib boradigan qilib katga tikilgan. Buxoro. Xorazm va boshqa yerlarda keng, uzun bichilgan. Englari ostidan yonlik qo'yilgan. Qultig'iga kulfak tikilgan. Erkak, ayol xatto bolalarga ham shu xilda ko'ylak tikilgan. Fakat uzun qisqaligi va yoqasi bilan bir-biridan farq qilgan. Erkaklar kuylagi tizzasidan sal tushib turadigan uzunlikda tikilgan. Ayollar kuylagi boldirining yarmigacha turadigan uzunlikda tikilgan.



XIX asr oxiri XX asr boshidan erkaklarning ko'ylagi tobora qisqara borgan bo'lsa. Ayollarning esa aksincha uzaytirilgan. Yerga tegib turadigan darajada uzun bo'lgan. Samarqand, Toshkent va ularning atrofidagi erlarda uzun ko'yak kiyish odat bo'lgan bo'lsa, Buxoro va uning chekkalarida ayollar ko'ylagi tizza buyi uzunlikda tikilgan.

XIX asr oxiridan Fargonacha beqasam choponlar keng qo'llaniladigan bo'lib qoldi. Issiq kunlarda erkaklar oq yaktak bilan ishton kiyib yurishgan. Yaktag tojikchasiga bir qavat degan ma'noni anglatadi. O'zbeklar orasida uni yaktak deb ataladi. Shoyi gazlamalardan qavib tikiladigan choponlar ham bo'lgan. Ayollar choponi nisbatan tor ishlangan. Chetlariga kora ma-giz kuyib tikilgan.

Ayollar choponlari orasida munisak bilan peshvo aloxida axamiyatga ega bo'lgan. Munisak chopondan ancha farq kilgan: yoqasiz tikilgan, yonliklari burma xolida tug'ilib, bog'ichlar bilan boglangan.

Munisak o'zbek ayollarini orasida keng tarqalgan bo'lib, turli joylarda uni turlicha atashgan: mursak, mirsak va xakazo.

**Paranji.** O'zbek ayollarini uchun tashqariga, ko'chaga chiqayotganda kiyilishi majburiy bo'lgan usti-bosh hisoblanadi. Har bir ayol har bir qizning albatta paranji va chachvoni bo'lishi lozim edi. Paranjisini ustiga yopib yuz-ko'zini chachvon bilan bekitgan. Turli yerda uni turlicha atashgan. Jumladan, Samarqandda chachvon chashmand deb yuritilgan.

XIX asr oxiridan o'zbeklar orasida kamzul va nimcha kiyish odat tusiga kiradi. Samaqandda kamzulning rumcha turini kiyishgan. Rumiy kamzul Toshkent atrofidagi kishloklarda ham keng tarqalgan. Odatdagi kamzullarda kesma chuntaklar bo'lмаган va tugmalanmagan. Rumcha kamzul esa bichishi. Tikilishi jixatidan buto'nlay boshqacha bo'lgan. Elkasi kisma bo'lib. yeng tomoni sal kiyshaytirib tikilgan kamzullar ham uchraydi.

**Belbog'.** Belni bog'lab yurish qadimdan qolgan odat. Markaziy Osiyo shu jumladan O'zbekistonning turli yerlarida o'tkazilgan arxeologik qazilmalar vaqtida topilgan xilma-xil yodgorliklar fikrimizning yorqin dalilidir. Ular orasida devorga solingan rasmlarda belini bog'lagan erkaklar tasviri ko'p uchraydi. Ajdodlarimiz juda qadim zamonlardan boshlab o'zlarining ishga, xizmatga tayyor ekanliklarini shu tariqa izxor qilishgan bo'lsalar kerak.

Belbog' turli xollarda turlicha bog'langan. Asosan to'n, chupon tugmalanmaydigan bo'lgani uchun yurganda, ish qilayotganda halaqait bermasligi uchun belbog' bilan maxkam bog'langan Agarda chupon ustidan to'n kiyiladigan bulsa. Belbog' ichda ustidan to'n yoki chupon uzi kiyilganda yaktak ustidan belbog' bog'langan. Belbog'ning turi xam, nomi ham har xil bo'lgan chorsi. Kiyikcha va mayonband. Qo'sha, futa va xakazo.

**Bosh kiyimlari.** Erkaklarning yozda ham ko'klam. Kuzda ham xatto mu'tadil sovuq kezlarida ham asosiy bosh kiyimi dup pi bulgan. Duppi qachon va qaerda paydo bo'lgani haqida xozircha aniq ma'lumot yuk. Lekin duppiga uxshagan uchli, chunki bosh kiyimi juda qadimdan ishlatilib keliayotgash ma'lum. Taxminan XIX asr 20-yillarida keng tarqala boshlagan degan fikr mavjud.

Erkaklarning eng qadimgi bosh kiyimi kulox deb ataladi. Ommaviy bosh kiyimini Fargona viloyatida duppi, O'zbekistonning boshqa viloyat va tumanlarida tuppi deb yuritiladi. Duppilar shaklan uch xil bo'ladi: cho'qqisimon shaklda, yumaloq, sharsimon va ya'ni, usti tekis.

Tus duppi ya'ni tekis duppilarning eng ko'p tarqalgan nusxasidir. U sakkiz xil chok uslubida tikiladi: to'g'ri choc, zanjira, chita, kungura, yetalatma, ova, tarok, kalandar, pildiroq. Erkaklar ilgari rangli guldor duppilar kiygan. Keyinchalik oq-qora Chuet duppi lari kiyadigan bo'lishdi. Bu duppilar asosan bodom yoki qalampir nusxa bo'lib, aslida qush tasvirining bir bulagidir. Ilgari duppining turt tomonida ham qush tasviri bo'lgan. Keyinchalik uni ixchamlashtirilgan xolda, qushning boshi va oyoqlarini tikmay qo'yishgan. Duppilar ichida Qo'qon va Marg'ilon duppilari ham odmiligi va rasoligi bilan ajralib turadi. Bu duppilarda choklari nisbatan ancha kam.

50-yillardan duppilarda mitti qushlar, jumladan bul-bulni tovusni tasvirlash odat tusiga kirdi. Lekin bu xil duppilarlarga talab unchalik ko'p bo'lmadi.

20-yillardan oxiridan qizlar yosh juvonlar ham duppi kiya boshladilar. Iroqi uslubida xomduzi bezak bilan tikilgan xotin-qizlar duppisi duppiduzlik ravnaqining eng yorqin namunasi desak bo'ladi. Ko'kragiga tasvirlangan kelin bilan kuyov surati duppiga tantanavor to'y berib turadi. Qish kunlari erkaklar muyna telpak kiyishgan. Bu kiyim kuloxga uxshash tikiladi. Muyna telpaklarning turi ko'p bo'lgan. Ular bir-biridan bichimi va tikilishi jixatidan fark qilgan. Salla. Markaziy osiyoda salsa urash odati qachon raem bo'lgani haqida aniq ma'lumotlar yuk. Shuningdek u qaysi davlatdan kirib kelgani ham noma'lum. Yunon muxarixi Strabonning yozishicha salsa urash qadimiy midiyaliklar orasida ham odat bo'lgan. Salla so'zining ma'nosi va uning qaerda vujudga kelgani xususida har xil fikr mavjud. Olimlarning dalolatiga qaraganda salsa Toshkent shevasiga xos so'z bo'lib, solmoq so'zidan olingan. Ba'zan manbalarda chunonchi, o'rta asr yozmalarida esa salsa so'zi savat, tuguncha ma'nosini anglatadi deb yozilgan. Salla so'zi turkcha so'z deyiladi. Markaziy osiyoda sallaning ikki xili ishlatilgan: katta salsa va kichik salsa. Kichik sallani ba'zi joylarda futa deyishgan. Futa arabcha so'z bo'lib. Xindistondan kirib kelgan. Asosan turmushga chiqqan ayollar uragan. Kelinga nikox kuni otasining uyida salsa kiydirishgan. Kuyovnikida salsa urash xollari ham bo'lgan. Sallani ayollar tugishdan qolgan yoshiga qadar o'rab yurgan. Ayollar sallasi kiygich yoki duppi va o'ramdan iborat bo'lgan.

### **AMALIY SAN'AT**

O'zbeklar Xunarmandchiligi, amaliy san'atining qadimiy-kuxnaligi rang-barangligi, ravnaq kamolati jihatidan ular bilan teng keladigan xalq bo'lmasa kerak. O'zbek amaliy san'ati Sharq mamlakatlari tarixida shubxasiz oldingi saflarning birida turadi. U nixoyatda chuqur ildiz otgan, tarixi miloddan oldingi necha yillarga borib taqaladi. Ko'lollik. O'zbekistonning turli xududlarida ko'p yillar davomida olib borilgan va davom ettirilayotgan arxeologik qazilmalar vaqtida topilgan. Xorazm, Qashkadaryo, Surxondaryo viloyatlaridan, Toshkentdagi Shoshtepa, Oq tepadan chiqqan sopol buyumlar kulollik

o'zbek diyordagi eng qadimiy ama liy san'at turlaridan biri ekanligiga yorqin dalil bo'la oladi. Xorazm zangori kulollikning asosiy markazlaridan biri xisoblangan. Kuxna Xorazm uchta qadimiy zangori kulollik maktabi bo'lgan: Madir kulollik maktabi, Kattabog' maktabi, Kuhna Urganch maktabi. Garchi hammasi ham zangori kulollik buyumlari ishslash bilan band bo'sada, naqsh haqlari uslubi jixatidan bir-biridan ancha farq qilgan.

**Kandakorlik.** Metall buyumlarga bo'rtma usulda ishlov berish kasb-Xunari ajdodlarimizning azaliy amaliy-san'at turlariga kiradi. Qadimgi va ilk o'rta asr davrida asosan xallangan kumush buyumlarga bo'rtma naqsh solingan. III-VIII asrlarda o'zbek qandakorligi chinakamiga rivojlna boshlaydi. qizil misdan kuza, degchalar, idish, sariq misdan paymonadlar, shamdonlar oq mis va bronzadan piyolalar, kuzalar kir togoralar yasaladi. XI asr o'rtalariga kelib mis va uning qorishmasidan yangi xil buyumlar tugri turtburchakli barkashlar, korni yumaloq, buyni naqshinkor kuzalar, yarim doyra paymonalar, xovonchalar, siyoxdonlar, bronza ko'zgular tayloranadi. Yozuvli naqshlar keng miqyosda qo'llana boshlanadi.

Misgarlik san'ati ham qandakorlik san'ati an'analariga yaqin. Misdan ishlangan buyumlar qadimdan o'zbek xonadonlarida keng qo'llanib kelingan. Bu buyumlar O'zbekiston, Qarshi, Shaxrisabz, Qo'qon, Toshkent singari yirik Xunarmandchilik markazlarida keng miqyosda har biri o'z milliy an'analariga mos uslubda ko'plab miqdorda tayyorlangan. Buxoroda asosan choydishlar, oftobalar, chilimlar dastshuylar tufdonlar, har xil shakldagi oziq-ovqat saqlash idishlari yasalgan. Bu buyumlar islamiy hamda chashma bulbul naqshlar bilan ziynatlangan. Qurol-aslaxalar ishlash san'ati ham juda qadimiy bo'lib o'z milliy uslubini saqlab qolgan Xunarlardan biridir. O'zbek ustalari ishlagan kinli xanjar va kilichlar, sovut, qalqon. Dubulg'a, yugan, bo'yin bog'ich, oyboltalar naqsh bezaklarida juda nafis buyumlardir. Uymakorlik. Yog'och, ganch va boshqa narsalarni uyib naqsh solish san'ati borasida ham o'zbek eli juda qadimdan shuxrat qozongan. O'tmishda Qo'kon va Xeva uymakorlik maktablari buto'n Markaziy Osiyo xududida ma'lum va mashxur bo'lgan. Buxoro va Samarcand uymakor ustalari ishlagan namunalar rang-barangligi, ganchning nimrang, ko'kish, to'q sarg'ish, qizil lojuvard ranglar bilan hamohangligi bilan ajralib turadi. Qo'qon. Xeva ustalari yong'oq, chinor, qayrog'ochga uyib solgan naqshlari kishini diqqatini o'ziga tortadi.

**Taomlari.** O'zbekiston aholisi iste'mol qilayotgan xilma-xil taomlar asrlar davomida shakllanib kelgan. O'troq xayot kechirgan aholi bilan chorvador yarim ko'chmanchi aholi taomlari bir-biridan ancha farq qiladi. Ayni vaqtida boshqa xududlarda yashayotgan o'zga xalqlardan Markaziy Osiyo yerlariga kirib kelgan taomlar ham bo'lganki, ular o'zbek taomlariga ta'sir ko'rsatgani shubxasizdir. Ovqatni qanday va qachon iste'mol qilish turli tabiiy iqlimi sharoitlarga qarab har bir joyning tabiiy imkoniyatlariga qarab xilma-xil bo'lgan. Eronga yaqin yerdarda yashayotgan aholi ovqatiga eron fors taomlarining, Markaziy Osiyoning sharqiy xududlarida yashayotgan aholining taomlariga qoshg'arlilar, uyg'urlar ovqatlarining ta'siri ko'chli bo'lgan. O'zbekistonda juda qadim zamonlardan buyon yashab

kelgan ajdodlarimiz dehqonchilik. Chorvachilik bilan shug'ullanishgan. Ona urug'i davridayoq Zamontobodan topilgan arxeologik yodgorliklarga ko'ra odamlar dehqonchilik qilishib. Arpa, bug'doy ekishgan. Sigir, qo'y, echkilari bo'lgan. Ovchilik bilan shug'ullanishgan. Demak, jamoalarda don-dun, chorvachilik maxsulotlari mavjud bo'lgan. Keyinchalik bog'dorchilik rivojlanan boshlagan. O'zbek taomlari orasida non muhim o'rinn tutadi. Necha asrlar davomilda arpa, bug'doy va boshqa donlarni tuyib unidan non yashash taomilning rivojlanib kelishi natijasida nonning xilma-xil turlari vujudga keladi: obi non, jizzali, piyozli non, patir, gushtli non. Shirmoy non, gjida non. Non o'zbeklarda tandirda yopiladi. Tandir turli joylarda turlicha quriladi. Xorazm voxasi janubiy tumanlarda yashayotgan aholi tandirni og'zini oldinga sal kiyshaytirib o'rnatishadi. Sumalak, yorma, atala, chalpak, lochira, yupqa. nuxatshurak, yovg'on xurda, oqshoq talqoni kabi taomlar ham azaliy taomlardan hisoblanadi.

#### ADABIYOTLAR:

1. Aminov B. *Etnografiya olamiga sayoxat*. T.. 1985. 2.Axmedov B. *Uzbek ulusi*. T.. 1992.
2. Z.Buriev A. *Bolshaya semya uzbekov na rebeje XIX-XX vv.avtoref*. Kand.dis, L.. 1985.
3. 4.Buriev O. *Shoymardonov I. Etnografiyaga doyr kizikarli savollar va javoblar*. T.. 1994.
4. Z.Buriev O. *Etnografiya buyicha ukuv-uslubiy kullanma*. Karshi. 1996.
5. Buriev O., Ismoilov N. Raxmonov F. *Markaziy Osiyo xalklari etnografiyasi*, Karshi 1997.
6. Jabborov I.M.*Uzbek xalki etnografiyasi*. T. 1994.
7. Tolstov S.P. *Kadigi Xorazm madaniyatini izlab*. 1996.
8. Ibrahimov. N. "Ibn Battuta va uning O'rta Osiyoga sayoxati" T. 1993 y
9. Norboyev N. "O'zbek epining qabila va urug'lari haqida" T. 1997 y
10. Turon U. "Turkiy halqlar mafkurası" T. 1995 y
11. Xasanov X. "Sayyoh olimlar" O'zbekiston 1991 y
12. Xasanov X "O'rta Osiyo joy nomlari tarixidan" "O'zbekiston" 1981 y
13. "O'zbekiston Respublikasi enseklopediyasi" T. 1997 y
14. O'zbekiston milliy enseklopediyasi. Tom 1 T. 2000 y
15. S.N.Tursunov va boshqalar "Etnologiyadag o'quv metodik qollanma" Toshkent 1999 y
16. Azamat Ziyo "O'zbek davlatchiligi tarixi" Toshkent "Sharq" 2000 y
17. I.Jabborov "O'zbek xalqi etnografiyasi" Toshkent o'qituvchi 2004 y
18. K.Shoniyozov "O'zbek xalqining hsakllanish tarixi" I Sharq 2001 y
19. I.Jabborov "Jahon dinlari ratrixi" T."O'zbekiston" 1994 y
20. A.Xolmirzayev "Zarautsov tilsimlari" Toshkent "O'zbekiston enseklopediysi" 2003 y
21. O'zbekiston Milliy enseklopediyasi 7-jild "O'zbekiston enseklopediysi" Davlat ilmiy nashriyoti
22. I.Jabborov "Jahon etnologiyasi asoslari" "Yangi asr avlodlari" 2005 y